

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES

2023 Vol. 3 (3)

www.tsuull.uz
www.uzltscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Uzoq Jo'raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay'ati

Islomjon Yoqubov, Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatova, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Ra'noxon Xudjayeva, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Gulnoraxon Niyazova, Shahnoza Sultonova, Shahnoza Asqarova, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillayev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi №308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. "Qiyosiy adabiyotshunoslik chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O'zbekiston: til va madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlctscls@navoiy-uni.uz

Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Shuhrat Sirojiddinov
Deputy editor-in chief:	Uzok Djurakulov Nozliya Normurodova Ziyoda Teshaboeva
Executive secretary:	Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

Islomjon Yoqubov, Bahodir Holiqov, Komiljon Hamroev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidakhon Bumatova, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Ra'noxon Khudjayeva, Yulduz Ziyaeva, Zulfiya To'xtakhadjaeva, Gulnoraxon Niyazova, Shahnoza Sultonova, Shahnoza Asqarova, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillaev.

About the Journal

Uzbekistan: Language and Culture. Comparative Literature Studies, Contrastive linguistics and Translation Studies series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary studies, contrastive linguistics and translation studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.trans.compliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

TAQRIZ

Uzoq Jo'raqulov

Matn nazariyasi istiqbollari (Professor Shuhrat Sirojiddinovning "Amir Alisher" kitobi haqida) 8

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Иманғазы Нұрахметұлы, Uzoq Jo'raqulov

Қазіргі заманғы Қазақ романдары хақында.....14

Olmos Xurramov

Tarixiy hikoya imkoniyatlari20

Komiljon Hamroyev, Shahnoza Siddiqova

Hikoya syujetining nazariy talqinlari.....25

Nilufar Jumayeva

"Askar mukofoti" asarida avtobiografik romanga xos xususiyatlar34

Osiyo Siddiqova

Satira va yumorga oid ayrim mulohazalar.....41

Gulhaya Isabayeva

"Ona" obrazi tasvirlangan zamonaviy qissalarda syujet tiplari.....47

Sanobar Saydazimova

Zamonaviy qissalarda paranormal epizod tasviri56

Munira Niyazova

Rus adabiyotshunosligida sentimental adabiyot muammolarining aks etishi61

JAHON DRAMATURGIYASI: TARJIMA VA ILMIY TALQIN

Dilafroz Ochilova

Ingliz klassitsizm dramasi intertekstuallikning sharqona motivlarda ifodalanishi.....66

Nafisa Tursunova

U.Shekspir dramaturgiyasida telba obrazining badiiy talqini.....73

SHARQ VA G'ARB LIRIKASI MUAMMOLARI

Sevinchoy Yoqubova

Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin79

E'zoza Bozorova

Qutlibeka Rahimboyeva she'riyatida ayol ruhiyatining metaforik talqini.....90

Shalola Davletova

Muhammad Yusufning "Uyqudagi qiz" she'ri tahlili.....97

SHARQ VA G'ARB LIRIKASI MUAMMOLARI

Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va hermenevtik talqin

Yoqubova Sevinchoy¹

Abstrakt

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligidagi dolzarb masalalardan biri ramzlarning jadid she'riyatida qo'llanilishi, badiiy-estetik vazifalari tahlil etilgan. Unda o'zbek adabiyotida keng qo'llaniladigan ramzlar tadqiq etilib, jadid shoirlari ijodida mazkur ramzlarga yangi ma'no va mazmun yuklatilgani semiotik va hermenevtik talqin asosida yoritib berilgan. Muallif avvalo, ramzlarning o'ziga xos jihatlarini muayyan darajada tasniflab o'rganadi. Bu esa jadid she'riyatining dunyoviy va ijtimoiy mohiyatini chuqurroq anglash va tushunishga imkon yaratadi.

Maqolada Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat singari jadid shoirlarining ko'plab she'rlari zohiriy va botiniy qirralari kuzatilib, muayyan umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *She'riyat, ramz, hermenevtik talqin, tuyg'u va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, semiotika, botiniy mazmun.*

Kirish

Semiotika – belgi (ramz, simvol)lar nazariyasi bo'lib, bu atamani fanga amerikalik mantiqchi, faylasuf va tabiatshunos olim Charlz Sanders Pirs (1839-1914) kiritgan edi [Pirs, Ch. S. 2009, 86-87]. Ma'lumki, ramzlarga yashiringan ma'no-mazmun va ishoralarni sharhlashda muayyan hermenevtik an'analar shakllangan. Ramz (simvol) – hissiy obrazli timsollar orqali axborot yaratiladi. Har bir avlod o'zicha anglashi va izohlashi mumkin bo'lgan tarzda kelajak nasllarga yetkazib beriladi. Binobarin, bizning avlod ham o'zbek jadid she'riyati ramziy shakllar tizimi, ularning tuzilishi va mohiyati, badiiy-estetik vazifasi haqida mulohaza, muhokama yuritish, sharxlash va anglashga ehtiyoj sezadi.

She'riyatdagi ramz (simvol) – shartlangan belgi, timsol bo'lib, ruhiy kechinmani hissiy, obrazli tarzda ifodalaydi. Ramz o'zaro hamfikir va kechinmadosh (*shoir va kitobxon*) qalbi ruhan tutashgan va onglari diydorlashgan nuqtada o'z chiroyini ochadi. So'z bag'rida yashirin ifodalangan ob'ekt o'zining xolis sharxini topsa, konkretlashib, milliy qadriyat darajasiga yuksaladi.

Kuzatishlarimiz natijasida ramzning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish o'rinlidir:

¹ Yoqubova Sevinchoy Islomjonovna – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: yoqubovasevinchoy30@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-8104-3252

Iqtibos uchun: Yoqubova, S.I. 2023. "Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va hermenevtik talqin". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 79-88.

• **falsafiy jihat:** ramz tafakkur mahsuli va tafakkur ramzda aks etadi. “Germenevtik doira” – siklik jarayon, ya’ni bilimning butundan xususiyga va xususiyan butunga tomon harakatlanishi yotadi [Gadamer G.G. 1991, 72].

• **germenevtik jihat:** har qanday ramz ma’lum bir ma’noni ifoda etadi, uni tushuntiradi;

• **gnoseologik jihat:** ramzni ma’lum kishilar (*turli ijtimoiy guruh va qatlamlar, shoiru adiblar*) o’z bilimlari va bilish miqyoslari darajasida yaratishadi va anglab yetishadi;

• **ontologik jihat:** butun borliq ramzlardan tashkil topadi;

• **psixolik jihat:** ramzda doim muayyan ruhiyat va kayfiyat mavjud;

• **sotsiologik jihat:** ramz doim ijtimoiy xarakterga ega;

• **aksiologik jihat:** ramz qadriyat darajasida namoyon bo’ladi.

Anglashiladiki, ramzda ma’no obrazli shaklda ifodalanar ekan, bu obrazli tafakkur, ya’ni olamning ma’juziy shakl, rang va ohanglardagi ifodasi germenevtik tadqiqotni talab etadi. Talqin jarayoni turli rakurslarda kechishi, har bir belgi va ishoradan turfa ma’nolar chiqarish, asl haqiqatni topish imkonini beradi.

Asosiy qism

Jadid shoirlari ijodida yetkchi (dominat) lik qiluvchi realistik metodda badiiy dunyo shaxsning insoniyat taqdiri uchun javobgarligi g’oyasini o’z ichiga oladi. Fransuz shoiri Pol Elyuar (1895-1952) aytganiday: *“Realizm insonning o’z men”ligi ufqidan umumbashariy kengliklarga o’tishida madaniyat muhimligini tasdiqlaydi.* [Pol Elyuar 1971]. Demak, badiiyat dunyosi – reallikka parallel bo’lgan noreal olam, o’ziga xos kosmosdir. Afsuski, sho’ro davri adabiyotida hukm surgan “sotsialistik realizm” metodiga asoslangan asarlardagi badiiy voqelik adabiy-mafkuraviy siyosat va’da qilgan va ma’qullagan mavhum moddiy olam – “yorug’ kelajak”ni kuylashdan iborat bo’ldi.

Aytmoqchimizki, biz badiiy asarni barcha hodisalarning o’zaro ob’ektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog’lanishlari (determinizm) tamoyiliga tayanib mantiqiylik asosida talqin etarkanmiz, unda ilgari surilgan fikr-tuyg’uning g’oyaviy yo’nalishini chetlab o’tolmaymiz. Chunki, o’zbek jadid she’riyatida ijtimoiy-siyosiy muhitning shiddati, ilg’or ziyolilarning milliy tuyg’ularga to’yingan ruhiy kechinmalari, kayfiyat-hollari aks etgandir

Avloniyning “Mardikorlar ashuvlasi” [Abdulla Avloniy 2020, 218-221] (1916) asarida o’g’lini front orqasi – mardikorlikka jo’natayotgan, islomiy e’tiqodi mustahkam ota-onaning iztirob-nolalari, umid-iltijolari, farzandning esa ota-onasi va sevimli yori bilan xayrlashuv oldidagi mahzun kayfiyat-hollari, shuningdek olis o’lkalardagi og’ir va mashaqqatli hayoti aks etdi. Ota mardikorlikka ketayotgan o’g’liga qarata:

*G’am yema, o’g’lum, qaro kunlar ketub oq kun chiqar,
Yerga nam, qo’rqunch bulutlar ketub oydin chiqar...
Mehribonlardan ayrilding, bo’lma Hijron ey bolam,
Ham Vatandan ayrilib, sen diyda giryon ey bolam*

[Abdulla Avloniy 2020, 218].

Jismoniy kuchdan qolgan, o'zini ruhan tetik tutishga urinayotgan, sabrmatonatli Ota o'z farzandini qodir Olloh panohiga topshiradi: *"Xudo yoring bo'sun"*, *"Ollog'a topshurdum sani"*, *"Mavlog'a topshurdum sani"* kabi duo-alqovlar uning komil e'tiqodidan darak beradi. Shuning uchun ham ota: *"qaro kun'lar ketib, "oq kun'lar kelishi va "qo'rqunch bulut'lar o'z o'rnini "oydin tunlar"ga bo'shatib berishiga qattiq ishonadi.*

Abdulla Avloniy oq rang – tinchlik, osoyishtalik, ozodlik, poklik, beg'ubor go'zallik va oddiylik ramzi ekanini yaxshi biladi. Ota ozod va erkin zamonnin orzulagani uchun ham yaqin kelajakda o'z oilasi, xalqi va umuman yurtining hayotida toza sahifalar boshlanishiga komil ishonch hamda umid bilan qaraydi. Zohiran qaralsa, she'rda bir-birining ziddi sifatida kelayotgan ranglar oddiygina timsoldek tuyuladi. Ammo shoir bu ranglar orqali o'zbek xalqi asriy orzulari, g'oyaviy-mafkuraviy intilishlarini ifoda etadi.

Qadimiy tasavvurlarga ko'ra qora rang ko'pincha yorug'likka qarshi ma'noda keladi. Qorong'ulik va tuman jaholatni, shuningdek yovuzlik hamda g'am-anduh ma'nolarini bildiradi. Marhumlar saltanati qora rangda tasavvur qilinadi. Olamda bir-biri bilan zinhor kelishtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillar (dualizm) hamisha yonma-yon tarzda mavjud. Ayni masala bundan uch ming yillar oldin yuzaga kelgan "Avesto" adabiy-tarixiy yodgorligidayoq ta'kidlangan edi [Avesto 2001, 384]. Mazkur kitobda olam: *nur – zulmat; hayot – o'lim; tana – jon; yaxshilik – yomonlik; poklik – ifloslik; erkinlik – tobe'lik* singari hodisalarning azaliy va abadiy kurashi asosiga qurilgan. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ham yuqoridagi kabi ikkilik, ya'ni dualizm masalasiga to'xtalar ekan, unda g'oyalar dunyosi va voqeiy dunyo o'z ifodasini topishiga ahamiyat qaratadi. Aflotunning fikricha dualizm: *xudo – iblis* (yaxshilik va yomonlik tamoyili), *xudo – dunyo, ruh – materiya, tabiat – ruh, jon – tan, obekt – sub'ekt, bilim – e'tiqod, u dunyo – bu dunyo, tabiat olami – ilohiy marhamat saltanati* va boshqa falsafiy, diniy, antropologik, etik shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ko'rinadiki, dunyo taraqqiyoti jarayoni bir tomondan yaxshilik, haqiqat, yorug'lik, ikkinchi tomondan, yomonlik, jaholat, qorong'ulik o'rtasida abadiy kurash sifatida tasavvur qilingan. Farangistonlik faylasuf, riyozatchi, tibbiyotshunos olim va uslubiy nazariyotchi Rene Dekart va germaniyalik mutafakkir Immanuel Kant falsafiy qarashlarida ham dunyoning negizida bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki mustaqil narsa – ruh va materiya mavjudligi e'tirof etiladi. Yana bir olmon faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegel esa bu ziddiyatni dialektik sintez asosida bartaraf qilishga urinadi. Agar biz mustaqil O'zbekiston bayrog'idagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi, poklik, beg'uborlik, soflik, ichki go'zallikka intilishning timsoli ekaniga e'tibor bersak yuqorida fikr o'z tasdig'ini topadi.

A.Avloniy *"oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'"* kunlar ekani haqidagi qadimiy qarashlar, e'tiqodiy inonchlarga tayanib, oq va qora ranglarni bir-biriga zidlantirar ekan, qoralik oqlik bilan almashinuvi muqarrar ekaniga umid va ishonch bilan qaraydi. Shuning uchun ham Ota mardikorlikka jo'natilayotgan o'g'liga ruhiy dalda bera oladi.

Ayriliq g'amidan qaddi dol bo'lgan onaizorning esa qismatga ko'nishdan o'zga chorasi yo'q. Ona ayriliq va hijronning miqyosini chuqur his qiladi. U farzand keksa ota-ona boshidagi soyabon ekani bilan bog'liq inonchlaridan kelib chiqib: *"Qilmasun Olloh sani soyangni boshimdin yiroq"* deya nolai fig'on qiladi. O'g'il onasini: *"Makkam," "Madinam", "mehribonim", "g'amguzorim", "mushfiqim", "oromijonim", "jismimning ruhi", "hayoti jovidonim", "sham'i shabonim", "posbonim", "sirru nihonim"* kabi minnatdorlik va qarzdorlik hislarini ifodalovchi yupanch so'zlar bilan ardoqlaydi.

Ko'rinadiki, A.Avloniyning "Mardikor ashuvlasi" turkumiga kirgan she'rlari o'z xarakteriga ko'ra Muhiddin Ibrohimovning "Loshmon" (Namangan, 1916), Hamzaning "Milliy ashuvlalar uchun milliy she'rlar majmuasi" "Safsar gul", (Qo'qon 1917), Sirojiddin Maxdum – *Sidqiy* Xandaqliqiyning savol-javob usulidan foydalanib bitilgan "Sitamdiyda rabo(t) chilarning *kelishi*" muxammasi (Toshkent, 1917) asarlariga hamohang edi.

Umuman aytganda, prof. B.Qosimov ta'kidlaganidek: *"... ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she'riyatida markaziy o'rin egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavqu shavq bilan kuylaydi. "Maktab", "maorif", "ilm", "fan" kabi tushunchalar shoir she'rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko'tariladi, "jaholat" va "nodonlik" esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi."* [Qosimov B.2020, 53]

Avloniy she'rlari lirik qahramoni dilida mustamlakachilik jafosi – jaholat va xorlik iskanjasida faqir va haqir ahvolga tushib qolgan: *"xonumoni xarob", "boyqushlarga hamdam"* hamda bu kun jisman tirik, ammo ruhan *"jonsiz haykal"*ga aylangan noqobil, loqayd farzandlarining qilmishlari – Ona Turkiston so'lg'in ranglari ta'sirida tug'ilgan milliy hasrat nidolari ijtimoiy ohang bilan hamohang tarzda jaranglaydi. Larzaga tushgan lirik qahramon ularni ochunga tiyrak nigoh bilan boqishga chorlaydi. Uyg'onish va taraqqiyotga da'vat etadi:

Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son millat, o'son millat!

Topar san birla avlodning omon millat, omon millat!

Ta'kidlanganiday, Hamza Hakimzoda Niyoziy qarashlarida Avloniyga yaqinlik kuzatiladi. Masalan, Hamza qalamiga mansub "Yor-yorlarim" xalq qo'shig'i:

Qaro sochim o'sib qoshimg'a tushdi, yor-yorey,

Bu savdolar meni boshimga tushdi, yor-yorey.

ohangida bitilgan. "Sog'inib" she'ri mardikor yigitning yuzboshiga javobi tarzida yozilgan. Bu she'r o'zining musiqiy ohangdorligi, emotsional ta'sirchanligi va *"dili qon", "yurak bag'ri ezilgan", "ko'ngli siniq", "rangi somon", "aqlu hushdan begona", "dili g'amli, ko'zi namli"* musofir yigitning:

Falak titrar chin oh ursam dodim(g)a...

Ado bo'ldim ellarimni sog'inib [Hamza 1988, 84].

qabilidagi sog'inch va firoq tuyg'ulariga yo'g'rilgan kechinmalarining samimiy ifodasi bilan e'tiborni tortadi. Bu bejiz bo'lmay, XX asrning ilk choragiga kelib: *"She'riyatning ifoda vositalari o'zgardi. An'anaviy obrazlarga yangi ma'no yuklandi. Ma'shuqa sifatleri ilm-fan, tamaddun, taraqqiyot, ittifoq, vatan, millatga ko'chirildi. Til soddalashdi. Xalq qo'shiqlari ohanglaridan, hijo va sarbast vaznlaridan*

foydalana boshladi. So'ngroq 20-yillarda bu xususiyatlar yangi o'zbek she'riyatining eng muhim xususiyatlarini tashkil etdi." [Qosimov B. 2022, 54]

Hamzaning "Salom ayting" nomli she'rida mashaqqatli mehnat ostida sog'ligidan ayrilgan, o'zi og'ir xasta bo'lsa-da, yiroqdagi yaqinlarini ayab, ertadan umidvorlik bilan ularga duoi salom yo'llayotgan mardikor yigitning tuyg'u-kechinmalari tasvirlanadi:

*Ag'o, sog' borsangiz, avval
Dadamlarga salom ayting.
Yugurib chiqqan ul mushfiq
Onamlarga salom ayting [Hamza 1988, 90].*

Hamza salom yo'llashda lirik qahramon duosi usuli hamda "Sardaftar" musiqasining debochasi bo'lmish "Savti Chorgoh" ohangidan foydalanadi.

*Kelib qolgay, deng, albatta,
Ochilguncha gulu bog'lar.
Alar ko'ngliga ham betob
Debon solmang qora dog'lar*

O'tinch qilayotgan mardikor yigit nazdida onasining ko'zi hamisha "judolig' dasdidan yoshlig'", aka va opalari "ko'zi qon", millatdoshlari esa ilmsizlik, bid'at va jaholat girdobida. Ayrim mahalliy ma'murlar elni qo'rquv iskanjasida saqlashga ulush qo'shgan. Shu bois millat tiynatidagi qadimiy jasorat so'nib, birdamlik barham topgan. Hamza nazdida millat bunday "rasvo" holdan ilm-ma'rifat va ibratlanish orqaligini xalos bo'lishi mumkin. Shoir o'zining ana shu anglamlarini she'rning leytmotiviga olib chiqadi:

*Esak donish eli, o'lmas
Edik biz buncha rasvolar.
Bu kunlar ibrat o'lsun, ey
Vatan ketuvchi hamrohlar.
Ilm tahsiliga qilsun,
Hama bir dam, davom ayting [Hamza 1988, 92].*

Hamza insoniyat jamiyatini ezgu ishlar va xayrli amallarga yetaklovchi ilohiy yo'l-yo'riqlar, hukm va aqidalar majmui bo'lgan ma'naviy ehtiyoj – dinga alohida e'tibor beradi. Shoir o'z millatdoshlarini jamiyatda ilk kurtaklari namoyon bo'layotgan ateizm – dinga kufr keltirish, uni inkor etish yoki asl mohiyatini xalqdan bekitish harakati qanday kulfatlarga debocha bo'lishidan ogoh etadi. Islomning hukm va ta'qiqlar to'plami bo'lgan shariat hukmlariga amal qilmay, bid'atga berilgan mahalliy hukmdorlar va ularga ergashuvchi ayrim yurtdoshlarini ogohlikka chorlaydi. Zamonaga hamqadam bo'lishga da'vat etadi. Binobarin, o'lkadagi kundalik hayot tarzining Islom shariatiga muvofiq bo'lishini yoqlaydi:

*Havas bas emdi, tark etsun
Hama to'yu - tomoshoni
Bazm, ayshu tarab, bid'at
Kabi behuda savdoni.
Hama yakdil bo'lub tutsun,
Umuru shar'i mavloni...*

*Qo'yub ko'p vahshilik, emdi,
Bo'sunlar ilma rom ayting [Hamza 1988, 92].*

Ko'rinadiki, Hamza Hakimzoda Niyoziy millat ongi, tafakkuri, odam va olamga bo'lgan munosabatini yangilash tarafdori bo'lmish ma'rifatparvar ziyolilar va jadidlar safida edi. Uning e'tiqodi adabiy-estetik qarashlari, xususan she'riyatida ham yorqin namoyon bo'ladi:

*Millatim nasli bashardur,
Vatanim kurrai arz.
Ikkisin xizmati farzdur,
Ikkisidan jon qarz [Hamza 1988, 282].*

Odamzotning asli bir, ya'ni ular Odam Ato va Momo Havo farzandlari [Qur'oni Karim 1992, Hujurot surasi, 13-oyat.].

Vatani esa Yer yuzidir. Binobarin, inson farzandi millatlararo do'stlik, birodarlik va muqaddas zaminni yashnatishga mas'uldir. Shubhasiz, bunday fikr-qarashlar shoirning bunyodkorlik va insonparvarlikka asoslangan ma'rifiy konsepsiyasiga asoslanadi. Hamza ichki tiynati va ijtimoiy-tarixiy omillar negizida o'zbek adabiyoti, xususan she'riyatini yangilash harakatining oldingi saflarida turdi. Bizningcha, quyidagi satrlarda shoirning g'oyaviy niyatini anglatib turuvchi yetakchi motiv o'z ifodasini topgan:

*Bu Nihon qon yig'layur millat uchun laylu nahor,
Yoz o'tub, qish keldi holo, bizga bo'lgan yo'q bahor [Hamza 1988, 14].*

Hamzaning bu satrlarini yanada teranroq tushunish uchun yuqori Chin (Xitoy)dan Shimoliy Afg'onistonga qadar cho'zilgan turkiy o'lkalarni kezib chiqqan Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) "Devonu lug'atit turk" [Qoshg'ariy 1960] kitobida keltirgan she'riy misralarda ifodalangan fikr-tuyg'ularga ham e'tibor qaratish lozim.

Islomdan ilgarigi og'zaki she'riyat namunalari bo'lgan "Devonu lug'atit turk"dagi qo'shiqlarning yetakchi motivlaridan biri Turk xoqonligidagi tushkunlik holati, birlashtiruvchi yagona g'oya yetishmasligi masalasidir. Jumladan, "yig'i-yo'qlov" janrida yaratilgan "Alp Er Tunga" marsiyasidagi motam ko'z yoshlari turkiy elning nainki o'z sevimli qahramoni, xoqoni va yo'lboshchisidan ayrilgani, balki boy berilgan imkoniyatlar, parchalangan yurt, tushkunlikka yuz tutgan turkiy saltanatdagi ma'naviy yo'lsizlik holatini ifoda etadi.

"Qish va yoz" munozarasida ham turkiy elatlarning fe'l-atvori, yashash va tafakkur tarzi, ona tabiatga bo'lgan munosabati, sevinch va qayg'ulari aks etadi. Ularda ifodasini topgan tuyg'u-kechinmalarni o'qirkanmiz, ko'z oldimizda chorvador turkiy elatlar hayoti, faoliyati, tabiiy muhit yaqqol gavdalanadi. Shuningdek, biz: "Alin topu yashardi" ("Tog' boshlari yashardi"); "Keldi asin asnayu, / Qozqa to'pal usnayu, / Kirdi budun qusnayu, / qara bulut ko'krashur" ("Keldi shamol huvillab, / Bo'ron bo'lib g'uvillab, / Xalq titrashur uvillab, / Qora bulut guldirar"); "Ko'zum yashi savruqub quzi aqar, / ilnib ajun emgagin tugal uqar." ("Ko'zim yoshi tirqirab quyi oqar, / Anglab dunyo g'amini tugal uqar") kabi parchalarda "tog' boshlari yashardi", "xalq uvillab titradi", "qora bulut guldiradi", "ko'z yoshi tirqiradi" singari majoziy tasvir, tashbeh, istiora, jonlantirishlar

qo'llangani guvohi bo'lamiz. Ular nainki tabiatga, balki ijtimoiy voqelikka bo'lgan munosabatni ham ifoda etadi.

Anglashiladiki, Nihon (Hamza) tunu kun qon yig'lashining zamirida qadimiy adabiy an'anada kuzatilgan Vatan va millat dardida chekilgan achchiq iztirob va alamli nolalar turadi. Shoir ona tabiatdagi o'zgarishlar bilan ijtimoiy hayotni qiyoslar ekan, uzoq vaqt sog'intirgan bahorni intiqlik bilan kutadi. Kayfiyat-hollarini yoz, qish, bahor fasllariga xos fazilat va nuqsonlar bilan bog'liq o'zaro zid timsollar orqali badiiy ifodaga ko'chiradi. Bu hol bizga "Devoni lug'otit turk" (M.Qoshg'ariy), "Shohnoma" (Firdavsiy), "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" (Beruniy), "Qisasi Rabg'o'ziy" (Rabg'uziy), "Saddi Iskandariy" (Navoiy) kabi asarlardagi yil fasllari, jumladan, Navro'z xususidagi zohiriy va botiniy ma'nolarga boy, bahorga bo'lgan alohida bir mehrga to'la satrlarni eslatadi. Pirovardida, Nihoniy (Hamza) dunyoqarashi naqadar ko'lamli va taxayyul ufqlari qanchalar yuksak ekanidan ogoh etadi. Zotan shoirning uyg'oq va yorug'likka talpinuvchi qalbi tabiatga harqancha hamohang bo'lmasin, zamoniy o'zgarishlar shiddati millatdoshlarini uyg'otmayotgani, muqaddas makonda hamon tutqunlik, zulm va istibdod hukmron ekanidan iztirob chekadi. Binobarin, Hamza milliy jipslik, birdamlilik va erk sog'inadi.

Ko'rinadiki, 1900-1917 yillardayoq yangi milliy adabiyotning ijtimoiy maqomi o'zgardi. Ijod ahlining estetik ideali tobora ijtimoiylasha boshladi. Shu ikkita omil adabiyot va san'atni mafkuraviy tarbiya quroliga aylantirishni taqozo etdi.

Biz yuqorida aksariyat shoirlar yangi shakllar izlab topish va voqelikni estetik baholashga intilgani guvohi bo'ldik. Abdurauf Fitratning "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi") tipidagi asarlarida esa, adabiyot yangi maktablar, tahsil usuli, mulkdorlik ravishi haqidagi bahs va munozara maydoniga aylangan edi [Boltaboev H. 2007, 198]. Fitrat "Mening kecham" she'rida tabiat manzaralari va ijtimoiy jarayonlarni muqoyasa qilarkan, tun zulmatidan keluvchi mungli kayfiyatini ijod sha'mi va ko'ngil nurlari bilan yoritmoqqa mayl bildiradi:

*So'lg'un, qora, turg'un dema. Ko'rdim
mungli kechaning mungli chog'inda,
ko'b mungli uyimning qirog'inda
yolg'uz iki narsa yondosh-da:
biri sham'im, biri...
ko'nglim! [Fitrat 2000, 44]*

Fitrat badiiy izlanishlari an'anaviy she'riy tizimni yangilashga intilgani, olmon romantiklari, fransuz simvolistlari, usmonli turk, tatar va rus she'riyatining erkin she'r vaznlariga xos badiiy ifoda yo'sinlari, xususan ritmik birlik, vazn, qofiya va turoqdan xoli "verlibir", "svobodnyy stix" ("erkin she'r") shaklini ijodiy o'zlashtirgani guvohi bo'lamiz. Mungli oniy kayfiyat uyg'otgan "so'lg'un", "qora", "turg'un" kabi ijtimoiy vaziyat-holatni ifodalovchi ramzlarni sha'mning shu'lasiyu ko'ngilning harorati bilan zidlantiradi. Boshqacha aytganda, shakl unsurlarini

badiiy mazmun bilan uyg'unlashtirib, emotsional ta'sirchanlikni oshirishga muvaffaq bo'ldi.

Ko'rinadiki, jadid shoirlari ijodida millatparvar lirik qahramon siymosini chizishda, erk, ozodlik, hurlik haqidagi qarashlarini ifodalashda, she'riyatning botiniy mazmunini yanada kuchaytirishda ramzlar muhim vosita rolini o'tagan.

Xulosa

O'zbek adabiyoti tarixida jadid she'riyati o'ziga xos o'rin tutib, u nafaqat g'oyaviy yo'nalishi, balki badiiy o'ziga xosligi bilan ham yangi taraqqiyot pog'anasiga ko'tarilgan.

XX asrning boshlarida o'zbek adabiyotida bo'lgani kabi jadid she'riyatining ham shakli va mazmuni, obrazlar olami, ifoda tarzida yangilanishlar yuz bera boshladi. Davr, zamon va ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolar jadid she'riyatidagi turfa xil obrazlar va ramziy ifodalar vositasida badiiy ifoda etilgan. Bu esa jadid she'riyatining ramziy mohiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

Demak, ko'pgina ramzlarning she'riyatdagi ifodalari qadimiy tasavvur, tushuncha va inonchlardan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Bu bevosita rang bilan bog'liq ramzlarga ham aloqadordir.

Bizningcha, dunyo xalqlarining turfa ranglar haqidagi tasavvur, bilim va tushunchalari quyidagi omillar bilan chambarchas bog'lanadi:

a) mifologik tasavvurlar;

b) xalqning ijtimoiy-madaniy hayot tarzidan kelib chiquvchi animistik, totemistik, fetishistik, magik inonchlar;

v) diniy-e'tiqodiy tasavvurlar;

g) urf-odat va marosimlar;

d) adabiy-badiiy an'analar.

Umuman, she'riyatda ramzlar orqali lirik qahramon kayfiyat-hollari, o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari poetik ifoda etilib, shoir muayyan manzara yoxud vaziyat-holatga ramziy-majoziy munosabat bildiradi.

Adabiyotlar

Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. (She'rlar, ibratlar). – Toshkent. "Ma'naviyat" 2020.

Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasini. – "Sharq", – Toshkent 2001

Ashirov A. A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. – T, 2007

Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007

Gadamer G.G. O krughe ponimaniya // Aktualnost prekrasnogo. – M.: Iskusstvo, 1991.

Gadamer G.G. Filosofskie osnovaniya XX veka // Aktualnost prekrasnogo. – M.: Iskusstvo, 1991.

- Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariy. (Tarjimon: Solih Mutallibov) "Devoni lug'atut turk". Tom: 1. "Fan" nashriyoti. -Toshkent, 1960.
- Mironova L.N. svetovedenie. - Minsk, 1984 Mify narodov mira. Ensiklopediya. Tom 2. - M., 1982
- Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. - T.: Fan, 2010. - B. 223.
- Pirs, Ch. S. Chto takoe znak? // Vestn. Tomskogo gos. un-ta. Ser. Filosofiya. Sotsiologiya. Politologiya. - 2009. - № 3 (7). - S. 88-95 / per. s angl. A.A.Argamakovoy; s predisl. k publ. - S. 86-87
- Pol Elyuar. Stixi Perevod M.N. Vaksmaxera Statya i kommentariy S.I. Velikovskogo Seriya "Literaturnye ramyatniki" - M., Nauka, 1971
- Sidqiy - Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
- Fitrat. Tanlangan asarlar. Besh jildlik. J.1. - T.: Ma'naviyat, 2000.
- Shleyermaxer F. Akademicheskie rechi 1829 goda. - M.: Nauch. izd., 1987.
- Qosimov B. Tanlangan asarlar. 2-jild. - T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022.
- Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. - Toshkent: 1992.13-oyat.
- Hamza. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. Ikkinchi tom. - T.: Fan, 1988
- Matyokubova, T., & Yakubov, I. (2020). Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews, № 7, pp. 28-37.
- Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
- Yakubova S. The issue of «way» in cholpon's poetry. ISJ Theoretical & Applied Science. . 2023. 02 (118), 490-492
- Yakubov I. A. Real and artistic truth in the poem "Black sun" / Aktualnye problem tyurkologii: Rossiya i tyurko-musulmanskiy mir. Kazan . 2021. pp.211-213.
- Yakubov, I. "Boburnoma" - o'zbek nasrining nodir yodgorligi. "Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, Toshkent, 2023. pp.174-179.
- Yakubov, I. Artistic interpretation of the drama of moral and spiritual problems in the tragedy "Romeo and Juliet". ISJ Theoretical & Applied Science. . 2023. 02 (118), 517-520